
"VAQF" XAYRIYA JAMOAT FONDINING SAXOVAT TADBIRI

Farg'ona viloyati "Vaqf" xayriya jamoat fondi o'zining navbatdagi ehsonini tashkil etdi. Ushbu xayriya fondi bu galgi tashrifini viloyatning to'rtta tumaniga uyushtirdi. Joylardagi imom-xatiblar bilan birgalikda Qo'shtepa, Oltiariq, Yozyovon, Toshloq tumanlaridagi yordamga muhtoj nogironlar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan fuqarolar hamda kam ta'minlangan 200 ta oilaga xomiylik asosida xayriyalar tarqatildi.



Fond vakillari Qo'shtepa tumanida ham bo'lishib, pandemiya sharoitida qiyngalgan 50 ta ijtimoiy ta'minotga muhtoj oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari jamlamasini ulashdilar.

Beruvchi qo'ldan ham, oluvchi qo'ldan ham Alloh taolo rozi bo'lsin!

"Vaqf" xayriya jamoat fondiga va ularning xayrli ishlariga ko'makdosh bo'layotgan barcha azizlarga tumanimiz ahli nomidan minnatdorchilik bildiramiz!



Abduxoshim Axmadaliyev,

Qo'shtepa tumani bosh imom xatibi.

2020-06-12 11:40:07